



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### TURIZMNING ATROF-MUHITGA TA'SIRI

**Qosimov Ibrohim Normuhammadovich**

**Mamatraimov Asadullo O'rol o'g'li**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabalari*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola turizmning atrof-muhitga ta'siri haqida yozilgan. Maqola mualliflari izlanishlari natijasida hozirgi kundagi turizmning jadal suratlarida o'sishi natijasida atrof-muhitga yetkazilayotgan zararlarni yoritib bergan.*

**Kalit so'zlar:** *turizm, ekologiya, ekoturizm, atrof-muhit, yovvoyi tabiat, issiqxona gazlari, transport, turistlar.*

Turizm bu - sayohat qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi tushuniladi.

Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar).

Turizm mamlakatga yahshi daromad olib keladi va chet ellik fuqarolarda mamlakat haqidagi tassurotlarni kengaytiradi.

Yurtimizda avvalo ichki turizmni rivojlantirmay turib, xorijiy sayyohlarni jalb eta olmaymiz. Chunki ularni besh yulduzli mehmonxonalar emas, balki shu yurtning urf-odatlarini, an'analarini aks ettirgan uylar, xonadonlar ko'proq qiziqtiradi. Shu sababli uzoq hududlardagi sayyohlar oqimi kam bo'lgan nuqtalardagi ichki turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim.

Turizmning rivojlanishi va mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlarning ko'pligi atrof-muhitga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Chunki mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlarning millati, dini, madaniyati turli xil bo'lganligi sababli ko'chalarning ifloslanishi kuzatiladi.

Sayyohlik agentliklari va sayyohlarning ba'zi harakatlari vaqt o'tishi bilan atrof-muhitning har xil ifloslanishi, jumladan havo, yer, suv va tuproq orqali boradigan joylarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, ba'zi sayyohlar axlat tashlab, atrofida plastmassalar va sigaret qoldiqlari kabi axlat yoki chiqindilarni tashlab ketishadi, shu bilan yer ifloslanishi paydo bo'ladi.

Turizm, shuningdek, bayramlar va tadbirlar paytida, ayniqsa, avtomobillar, avtobuslar, samolyotlar va ko'ngilochar transport vositalarining shovqinlari balandligi bilan bog'liq bo'lib, ular yovvoyi tabiatni bezovta qilishi va hatto yovvoyi



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

tabiatning tabiiy faoliyat turini o'zgartirishi mumkin. Turizm barcha havo qatnovlarining 60% dan ko'prog'ini tashkil qilganligi sababli, sayyohlik havosi chiqindilari orqali havoning ifloslanishining muhim ulushiga teng darajada javobgardir.

Baliq ovlashda ishtirok etadigan dengiz sayyohlari to'g'ri nazorat qilinmagan hollarda, ba'zi suvli sayohatlar uchun xavf tug'diradi, bu esa suvning ifloslanishiga va baliqlarning nobut bo'lishiga olib keladi.

Turizm atmosferada chiqadigan issiqxona gazlarining asosiy ishtirokchisidir. Turizm dunyo bo'ylab transport harakatining 55% dan ko'prog'ini tashkil qiladi va shu sababli u karbonat angidrid chiqindilarining 3% ni tashkil qiladi. Yillar davomida sayyohlar soni oshgani sayin emissiya darajasi oshadi va iqlim o'zgarishi ham yomonlashishi kutilmoqda.

Turizm ekologiyasi tushunchasi o'z ichiga atrof-muhitni himoya qilish va tiklashning aniq choratadbirlarini oladi. Ekologik turizm tabiiy turizmning insonlam i birlashtiruvchi ilmiy-tadqiqot maqsadlaridagi turlaridan biridir. Unda turistlarning qiziqishlari atrof-muhit tabiati va ularni saqlash bilan olib borilmog'i kerak. Turizmning ushbu turida qo'riqlanayotgan tabiat hududlari alohida o'rin tutadi. Shunday qilib, ekologik turizm qat'iy maxsus turdagi, ilmiy-tadqiqot maqsadlaridagi xizmat turidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ekologik barqarorlik, hatto turizmni rivojlantirishda ham eng dolzarb muammo hisoblanadi. Bu yerdagi munozaralardan kelib chiqqan holda, atrof -muhit nuqtai nazaridan turizmning afzalliklari ham, tahdidlari ham bor, ular tekshirilishi kerak. Ekologiya va turizm ajralmas tushunchalardir. Negaki, insoniyat dam olish niyatida avvalo, shunday tabiat bilan bog'liq joylarga boradi va o'zining hordig'ini chiqaradi. Mamlakatimizda ekologik toza hududlar ko'p. Ulardan unumli foydalanish, kerak bo'lsa, biznes ham qilish kerak. Ekologiyaga ziyon yetkazmay turizmni tashkil etish bu asosiy masaladir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ipocketpc.net sayti
2. O'zbekiston Respublikasining «Turizm to 'g'risidagi» qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari. -T.: Adolat.
3. ziyouz.com sayti